



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Sharofat Jiyanbekova**

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
hududiy markazi o'qituvchisi

## FINLANDIYADA O 'QITUVCHINING SAMARADORLIGI, KASBIY STANDARTLAR VA TA'LIM DASTURLARINING MUVAFFAQIYATGA ERISHISH YO'LLARI

**Annotatsiya:** . Finlandiya ta'lim tizimiga bag'ishlangan ushbu maqolada, ayniqsa muvaffaqiyatli o'qituvchi, kasbiy standartlar va ta'lim dasturlarining samarali o'zaro ta'siriga erishish yo'llari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Finlandiya ta'lim tizimi, o'qituvchining kasbiy standartlari, o'qituvchi nomzodlarining Universitetga qabul qilish standartlari, ichki malaka oshirish ta'limi, o'qituvchi samaradorligi, Finlandiya modeli

So'nggi yillardagi olib borilgan tadqiqodlar Finlandiyada muvaffaqiyatli ta'lim tizimiga erishilganligini ko'rsatmoqda. Ushbu muvaffaqiyatning asosiy omili o'qituvchilardir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi omili o'qituvchilar muvaffaqiyatining eng asosiy sababchilaridir. Finlandiya 70 –yillarda ta'lim tizimida tubdan islohotlar olib borib, malakali o'qituvchilar tayyorlashni maqsad qilgan. Birinchidan, kelajakdagi o'qituvchilarni aniqlash uchun universitetlarga qabul qilish standartlarida tanlov asosida mos nomzodlarni saralash bosqichlari tizimli amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Finlandiyaning bo'lajak o'qituvchilari uchun bakalavriat

ta'limidan tashqari, magistratura ta'limi ham majburiydir. Berilayotgan ta'lim orasida nomzodlarga tanqidiy, ijodiy va erkin fikrlash mantig'idan foydalanishni o'rgatish ham maqsad qilingan. Rivojlanayotgan davrga moslashishlari uchun endi ish boshlagan o'qituvchilarga doimiy ravishda hamkasblari bilan hamqadam bo'lishlari, tajriba va ma'lumotlarini almashish, bilimlarini doimo harakatda dinamik saqlashlari uchun, maktablarda eng kamida haftada bir marta malaka oshirish ta'limi tashkil etiladi. Shuningdek, o'qituvchilar va o'quvchilarning aniq baholash mezonlari mavjud emas; buning o'rniga o'qituvchilar o'quvchilarga ma'lum vaqt oralig'ida konstruktiv mulohazalar bildiradilar. O'qituvchilarni direktor o'rinbosarlari va hamkasblari baholaydilar. O'qituvchilarning ta'lim berishi bilan birga to'liq xizmat ko'rsatish muhiti, shuningdek o'qituvchilar malakasini oshirish materiallari va mahalliyashtirilgan o'quv dasturini yaratish Finlandiyaning muvaffaqiyatidagi yana bir ta'sirchan rollar qatorida ko'rsatilishi mumkin. PISA va TIMSS hisobotlari fin ta'lim tizimining dunyodagi eng yaxshi o'nta ta'lim tizimlaridan biri ekanligini olib borgan tadqiqotlari orqali isbotladi. Finlandiya ta'lim tizimi dunyo miqyosida baholanganda ushbu tizim muvaffaqiyatli ekanligini ko'rsatmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatga erishishida ba'zi omillarning ustuvor ekanligini ko'rsatadi. Bular " mukammal o'qituvchilar", "yuqori sifatli o'quv dasturi " va " to'la-to'kis ta'lim " (OECD, 2010 yil,S.122) da ko'rishimiz mumkun. (Darling-Hammond, 2009).

Ma'lumki, ta'lim dasturlari ta'lim tizimini shakllantiradi. Bundan tashqari o'qituvchilar o'quv dasturini takomillashtirish uchun doimiy ravishda ishlamoqdalar. Shuningdek, maktablarda ta'lim tizimi samarali tashkil etiladi. Asosiy maqsad o'quvchilarga asoslangan ta'limdir. Ushbu ta'lim tizimida o'quvchilarni o'zlarining uydagidek va mustaqil his qilishlariga va erkin harakat qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ushbu tuzilish "to'liq ta'lim xizmati " deb nomlanadi. Ushbu xizmat: kunlik tushlik ovqatlarini, transport harajatlarini, tibbiy sug'urtani, maxsus ta'lim xizmatlarini, moddiy yordam, o'quvchilarga psixologik yordamni va rahbarlik xizmatlarini bepul amalga oshiradi. Bu tizim qo'llashning asosiy maqsadi esa o'quvchilarni ijtimoiy-iqtisodiy farqlardan qutqarish va oralarida ijtimoiy tenglikni ta'minlashdir.

Bundan tashqari, o'qituvchilar malakasini oshirish, Finlandiya ta'lim tizimida eng muhim omillardan biridir. Yuqorida tasvirlangan omillar ham asosiy bo'lib tuyulsa-da, ushbu ta'lim tizimidagi o'qituvchilarning malaka oshirish ta'limi hayotiy element hisoblanadi.

Ta'lim tizimining asosiy maqsadi o'quvchining muvaffaqiyat darajasini oshirishdir. Shuningdek Yevropa Ittifoqida kredit tizimining birligini ta'minlash uchun olingan kurslar ECTS deb nomlangan kredit tizimi orqali amalga oshiriladi. Rivojlanayotgan dunyoda o'qituvchilar har doim o'zlarini kasbiy standartlarini oshirishga harakat qilishadi.O

‘qituvchilar bu borada zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishlari va qo‘llashlari kerak. Tadqiqotlarda o‘qituvchi, bolaning muvaffaqiyatiga o‘rtacha 50% ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatilgan. Boshqa omillar ham ushbu muvaffaqiyatga yordam beradi. Natijada yaxshi tashkil etilgan tizim to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini yaxshilaydi. Dunyo davlatlari o‘zlarining ta’lim tizimi sohasini rivojlantirishda Finlandiya modelini qo‘llashlari va samarali natijalarga erishishlari mumkun.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimida ham islohotlar jadal davom etmoqda. Xalqaro ta’lim tizimi muvaffaqiyatlaridan samarali foydalangan holda, 2030- yilgacha belgilagan ustuvor maqsadlarimizda muvaffaqiyatga erishishda biz o‘qituvchilarning o‘rni benihoya kattadir. Hamisha “ tadqiqotchi va izlanuvchan o‘qituvchi ” bo‘lib yashaylik !

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. AARONSON D., BARROW L., SANDER, W. (2007). Teachers and Student Achievement in the Chicago Public High Schools. *Journal of Labor Economics*, s.95-135.
2. ANGRIST. J. D, LAVY. V (2001). Does Teacher Training Affect Pupil Learning? Evidence from Matched Comparisons in Jerusalem Public Schools. *Journal of Labor Economics*, s. 343-369
3. CLOTFELTER . C.T, LADD. H. F, VIDGOR. J. L. (2006). Teacher-Student Matching and the Assessment of Teacher Effectiveness. *The Journal of Human Resources*, s.778-820.
4. DARLING-HAMMOND. L. (2009). Steady Work: How Finland Is Building a Strong Teaching and Learning System. *V .U.E.*, s.15-25.